

TARIX FANINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O'QITISH METODIKASI

*Maxmadiyorova Nigora Egamshukurovna
Samarqand ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
Umumta'lif kafedrasi tarix fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fanini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Interaktiv usullar, raqamli platformalar, virtual laboratoriylar, multimedia vositalari va sun'iy intellekt texnologiyalarining dars jarayoniga integratsiyalashuvi yoritiladi. Maqolada tarix darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tarix ta'lifi, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, AKT, multimedia, sun'iy intellekt, virtual ta'lif.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lif jarayonini zamonaviy texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, tarix kabi o'tmish voqealarini o'rgatishda texnologik vositalar orqali talabalarga hayotiy misollarni ko'rsatish, tarixiy joylarga virtual sayohat uyshtirish, animatsiyalar va interaktiv xaritalar yordamida darsni jondorish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lif tizimida interfaol usullar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarni mustaqil izlab topishlari, ularni tahlil qilishlari hamda xulosalar chiqarish malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bugun ta'lif muassasalarida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Bu holatning asosiy sabablari quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalar shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lifni tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, ular o'quv-tarbiyaviy jarayonga tizimli va faol yondashuvni keng joriy etishga yordam beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiyalar orqali o'qituvchi ta'lif-tarbiya jarayonining maqsadidan boshlab, tashxis qo'yish va bu jarayonni monitoring qilishgacha bo'lgan bosqichlarni oldindan rejalashtira oladi.¹

¹ Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar asoslari. T.: Fan va texnologiya, 2020.

Tarix fanini chuqur o'rgatishda ijtimoiy fan o'qituvchilariga jamiyat tomonidan yangi talablar qo'yilmoqda. Hozirgi zamon tarix o'qituvchisi ta'lim jarayoniga butun umr davom etadigan faoliyat sifatida qaraydi. O'quvchilarda tarixiy tafakkur va tarixiy ongi shakllantirish, turli xalqlar va ko'pmillatli xalqimiz tarixiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, davlatimiz tarixining jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini anglatish tarix fanining asosiy maqsadlaridandir. Shu bilan birga, o'quvchilarda tarix faniga oid umumiy va chuqurlashtirilgan kompetensiyalarini shakllantirish ham muhim vazifadir.

Tarix ta'limida AKT vositalaridan foydalanish quydagilardan iborat:

- Multimedia taqdimotlari tarixiy voqealarni vizual materiallar bilan boyitish.
- Interaktiv doskalar dars jarayonini jonli va o'zaro aloqador qilish.
- Online platformalar testlar, videodarslar, interaktiv topshiriqlar uchun.

Shuningdek, Virtual muzeylar va tarixiy joylarga 3D sayohatlar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish.

Chatbotlar va sun'iy intellekt yordamida tarixiy shaxslar bilan “virtual suhbatlar”.

Interaktiv metodlar orqali o'quvchini faollashtirish uchun esa quydagilarni ko'rishimiz mumkin:

- Tarixiy rolli o'yinlar va debatlar tashkil etish.
- Gamifikatsiya usuli orqali tarixiy faktlarni oson eslab qolish.
- Krossvord va savatga joylashtirish metodlari.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar yoshlarning hayotiy muammolar va yutuqlarga nisbatan o'z munosabatlarini bildirish istaklarini ro'yobga chiqaradi, ularni mustaqil fikrlashga va shaxsiy qarashlarini asoslashga undaydi. Pedagogik texnologiya esa texnologik yondashuv prinsiplariga tayangan holda amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv deganda, ishlab chiqarish jarayonlariga o'xshash tarzda aniq natijaga erishishga qaratilgan usul va vositalar majmuasi tushuniladi. U ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan tizimli metodlarni anglatadi. Agar metod bu bilim va ko'nikmalarni egallash, tadqiqot olib borish yoki faoliyatni amalga oshirish usullari to'plami bo'lsa, pedagogik texnologiya bu ta'lim-tarbiya jarayonining uslublari, shakllari, vositalari va metodlarining uzviy tizimidir.

Bundan tashqari, dars jarayonida fikrlar xilma-xilligini rag'batlantirish demokratik hayot tarzining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, erkinlikning asl mohiyatini tushuntirishda uning ma'naviy chegaralari mavjudligini o'quvchilarga anglatish muhimdir. Bu borada eskicha targ'ibot uslublari va mazmunsiz, siyqasi chiqqan misollardan foydalanishga barham berish lozim.

Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, bilimlarni samarali o'zlashtirish va shaxsiy fazilatlarini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodlarni qo'llash dars sifatini oshiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarni guruh yoki sinf bo'lib ishlashga jalb etadigan topshiriqlar, yozma ishlar va boshqa usullar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu metodlar barcha fanlarda qo'llanilganda, ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

Tarix fanini o'qitish jarayonida esa uning asosiy tarkibiy qismlari – maqsad, mazmun, metod va usullar hamda natijalar o'zaro chambarchas bog'liq. O'rta va o'rta maxsus ta'limda tarix fanining samarali o'qitilishi, birinchi navbatda, uning mazmunining g'oyaviy, siyosiy va nazariy jihatdan puxta tayyorlangan bo'llishiga bog'liq. O'quvchilarning tarixiy bilimlarni o'zlashtirish darjasи esa o'qitish maqsadi va mazmuniga mos keladigan o'quv shakllari, metodlar va vositalarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

Shuningdek, o'qitish natijalari ham o'qituvchining aniq maqsadni belgilashi, o'quv-tarbiya vazifalariga mos metodlardan ilmiy asoslangan tarzda foydalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ta'limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatlari ravishda amalga oshmog'i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog'i lozim. Bu maqsadlar tarix ta'limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta'limning boshqa shartsharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta'lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta'minlaydi. Ta'limdan ko'zlangan maqsadlarni o'qituvchi naqadar chuqr anglab olgan bo'lsa, tarix fanini o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanini zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qitish nafaqat bilim berishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning tarixga bo'lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Texnologiyalar vositasida tarixni jonli holatda ifodalash, uni zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish kelajak avlodning tarixiy ongini shakllantirishda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat yengilmas kuch. T.: Ma'nnaviyat, 2008.
2. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar asoslari. T.: Fan va texnologiya, 2020.
3. Abdullayeva M. Tarix ta'limida zamonaviy metodlar. T.: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti, 2021.
4. UNESCO. ICT in Education: A Curriculum for Schools and Programme of Teacher Development, 2020.